

INGLIZ TILIDA ERGATIV FE'LLARNING O'RGANILISH TARIXI

Qarshiyeva Shoxista Xoliqul qizi

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti,

“Xorijiy tillar” kafedrası stajyor o`qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10662889>

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilid ergativ fe'llarning o'rganilish tarixi va uning ahamiyati haqida muhokama qilinadi

Kalit so'zlar: ergativ fe'llar, tilshunoslik, grammatik, ergon, almashinish.

Bugungi kunga kelib, tilshunoslik sohasiga oid tushuncha va atamalarning soni tobora kengayib, ularning tuzilishi, ma'noviy jihatlari ham turli tilshunoslar olimlar tomonidan keng ma'noda tahlil qilinib o'rganilib kelinmoqda. Shular jumlasidan, ingliz tilidagi fe'llarga oid xususiyatlarning grammatik, sintaktik, pragmatik jihatlari o'rganilishi bugungi kundagi tilshunoslikning o'z oldiga qo'ygan vazifalardan biri bo'lib kelmoqda. Xususan, ingliz tili fe'llariga oid ergativlik xususiyatlari o'rganilish tarixi bundan ancha yillar oldinga borib taqalsada, buy yo'nalishdagi izlanishlar hali hamon ko'pgina olimlarni qiziqtirib kelmoqda.

“Ergativlik” atamasi grekcha “ergon” (bajarilgan ish-harakat) so'zidan olingan bo'lib, ilk bor 1912-yilda Dirr tomonidan qo'llanilgan¹ va 1928-yilda Germaniyada uning 35 Kavkaz tillari tadqiqotiga bag'ishlangan nashri orqali ommalashgan². O'tgan davrlardan buyon ergativlik turli nomlar bilan nomlanib kelgan: kauzativ almashinish³, tranzitiv almashinish⁴, unakkuzativ almashinish⁵ va boshqalar. Ergativlik taxminan 25% dunyo tillarining orasida muhim ahamiyatga ega⁶. Bu tushuncha zamonaviy tipologik tilshunoslikda turli grammatik hodisalarni qamrab oluvchi “soyabon” (“umbrella” term)⁷ atama sifatida qaraladi. Bundan ko'rinib turibdiki, tilshunos olim Dirr fe'llarga xos bo'lgan ergativlik tushunchasining ahamiyatini ilk marotaba o'z asarlarida keltirib o'tgan, keyinchalik esa ergativlik tushunchasi turli atamalar bilan nomlanib ommalashgan. Bugungi kunga kelib, ergativlik tushunchasi o'ziga xos turli xil ma'nolarni o'z ichiga oladigan “soyabon” atamasi sifatida zamonaviy tilshunoslikka kirib kelishi bilan izohlanadi.

So'ngi asrning boshlarida zamonaviy tilshunoslikda ergativlik atamasi olib kirilgandan buyon murakkab diskriptiv vazifa sifatida tipologik izlanishlarni ham talab etdi, tilshunoslikning nazariyalariga oid tushunchalar orasida ergativlik atamasini markaziy arenaga kirishiga sabab bo'ldi. Ergativlikning umumiy tushunchasi Filmor va Dikson⁸ kabi olimlarning asarlariga borib taqaladi. Diksonga ko'ra, “ergativlik tushunchasi umumiy qabul qilingan ma'nosiga ko'ra, o'timsiz gap (intransitive clause) tarkibidagi ega - xuddi shu tarzda o'timli gap (transitive clause) tarkibidagi to'ldiruvchi vazifasida (o'timli gap tarkibidagi egadan farqli o'laroq) kelishini ifodalovchi grammatik birlik (grammatical pattern) sifatida tahlil qilinadi”⁹.

¹ Dirr, A. (1912). Rutulskij Jazyk [*The Rutu language*]. Sbornik mate rialov dlya Opisaruya y. Plemn Kavkaza 42. 1-204.

² Dirr, A. (1928). Einfubrung in *Das studum der kaukasischen sprachen*. Leipzig: Verlag der Asia Major.

³ Haspelmath, M. (1993). More on the typology of inchoative/causative verb alternations. In Comrie & M. Polinsky (Eds.). *Causative and transitivity* 87-120. Amsterdam: John Benjamins.

⁴ Hale, K. & Keyser, S.J. (1993). On argument structure and the lexical expression of semantic relations. In K. Hale and S.J. Keyser (Eds), *The view from Building 20* (pp.53- 109). MIT Press, Cambridge mass.

⁵ Kiparsky, P. (1998). Partitive case and aspect. In M. Butt, & G. Wilhelm (Eds). *The projection of arguments: Lexical and compositional factors* 265-307. Standford: CSLI Publication.

⁶ Dixon, R.M.W. (1994). *Ergativity*. Cambridge: Cambridge University Press. P-2.

⁷ Umbrella term – used to cover a broad number of functions or items that all fall under a single common category. Collins English dictionary.

⁸ Dixon, R.M.W. (1979). *Ergativity*. *Language* 55, 59-138.

⁹ Dixon, R.M.W. (1994). *Ergativity*. Cambridge: Cambridge University Press. P-1.

Ko'rinadiki, ergativlik ustida ko'plab olimlar o'z munosabatlarini bildirib, bu haqida o'zlarining asarlarida keltirib o'tishadi va shu qatorda Dikson ergativlikning umumiy tushunchasi sifatida - o'timsiz gapdagi ega o'timli gapda to'ldiruvchi vazifasida qo'llanilishi mumkin degan fikrni ilgari suradi.

Ergativlik nafaqat konstruksiyaning grammatik birlikni (grammatical pattern of a construction), balki tilning ergativ tizimini ham ko'rsatadi, shuning uchun tilning ma'lum bir "turi" ni ajratish uchun ishlatiladigan turkum (categorisation) hisoblanadi. Bu atama dastlab bask tili kabi tillarga nisbatan qo'llanilgan bo'lib, unda o'timli fe'lning to'ldiruvchisi (complement of a transitive verb) va o'timsiz fe'lning egasi (subject of an intransitive) bir xil morfologik kelishik (morphological case) ga ajratilgan. Bask tili Yevropaning boshqa tillari orasida yagona ergativ til hisoblanadi. Ergativlik Avstraliya, Polineziya, Shimoliy Amerika, Britaniya Kolumbiyasi, Markaziy Amerika, Janubiy Amerika va Yangi Gvineyaning ayrim tillarida ham uchraydi¹⁰. Ma'lum bo'ldiki, ergativlikning tarixi uzoq yillarga borib taqaladi, uning dastlabki grammatik tahlillari esa bask tiliga borib taqaladi. Bundan tashqari, ergativlik hodisasini Yevropa tillaridan tashqari Amerika, Avstraliya, Polineziya kabi dunyoning boshqa davlatlarining tillarida ham uchratish mumkinligini yuqoridagi fikrlarimiz ham isbotlaydi.

So'nggi o'n yilliklarda ergativlik bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar bir qator tavsifiy tipologik masala (descriptive typological matters) larga: ergativlik turlari, tabiiy tillarda ergativlik yuzaga keladigan hodisalar, ergativ grammatika (ergative grammar) ning takomillashgan tavsifi kabilarga bosqichma-bosqich aniqlik kiritdi, hamda ergativlik haqidagi ilmiy masalalarni yanada keskinroq yoritib berdi.

Moravchik ergativ va noergativ birlik (pattern)larning tillar aro lingvistik taqsimoti (linguistic distribution) haqida izlanishlar olib borgan¹¹. Bundan tashqari, Nikolas dunyodagi tillar o'rtasidagi murakkablik (alignment) turining geografik tarqalishini (geographical distribution) ko'rib chiqdi¹². Ta'kidlash lozimki, bir qator tilshunos olimlar, xususan, Moravchik hamda Nikolas kabilar ergativ va noergativ shakllarning dunyo tillari orasida tarqalganini lingvistik va geografik jihatdan o'rganib chiqib, ular ustida izlanishlar olib borganligi ergativlikka xos xususiyatlar ustida yanada ko'proq tadqiqotlar olib borishga undadi.

Diksonga ko'ra, ergativlik atamasi ilk bor ot so'z birikma (noun phrase) larining tarkibiy qismlarini kelishik belgilari (case marking) bilan belgilash uchun ishlatilgan: "ergativ" - o'timli ega (transitive subject)ning kelishigini belgilovchi birlik sifatida dastlab "nominativ" deb atashgan, ammo hozirda "absolyutiv" ma'nosida o'timsiz ega (intransitive subject) va o'timli to'ldiruvchi (transitive object) ni belgilovchi birlik sifatida qaraladi¹³. Bundan ko'rinib turibdiki, dastlab ergativlik ot so'z turkumiga oid kelishiklarni belgilash uchun ishlatilgan, lekin bugungi kunda esa "absolyutiv" ya'ni, ega va to'ldiruvchi kabi gap bo'laklarini belgilovchi birlik sifatida foydalaniladi. Shunday qilib, ergativlik – akkuzativlikning ma'lum bir grammatik birligini ifodalovchi to'ldiruvchi (complementary) bo'lib, bunda bitta kelishik (bosh kelishik) ham o'timsiz, ham o'timli egani belgilaydi, boshqa holatda (tushum kelishik) o'timli to'ldiruvchi (object) sifatida ishlatiladi.

¹⁰ Dixon, R.M.W. (1994). Ergativity. Cambridge: Cambridge University Press. P-5.

¹¹ Moravcsik, E. (1978). On the distribution of ergative accusative patterns. *Lingua* 45: 233- 79.

¹² Nicholas, T. I. (1993) . Handbook of WA Aboriginal languages south of the Kimberley Region Canberra: *Pacific Linguistics*.

¹³ Dixon, R.M.W. Ergativity. Cambridge: Cambridge University Press. - 1994. P-1

Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, ergativlik ustida tilshunos olimlarning turli nazariyalari yildan-yilga o'zining ma'nolarini kengaytirib bormoqda. Xususan, Diksonning quyidagi ta'rifi ham fikrimiz isboti bo'la oladi: "Ergativ" atamasi keng ma'noda sintaktik jihatdan, bog'langan qo'shma gap (coordination) va ergashgan gaplar (subordination) orqali murakkab gaplarni yasashda muhim ahamiyat kasb etuvchi grammatik birlik sifatida talqin etiladi¹⁴.

"Ergativ" atamasining boshqa holatlarda ishlatilishi

Diksonning fikriga ko'ra, ba'zi tillarda deyarli hamma fe'llar o'timli yoki o'timsiz holatda bo'lishi tabiiy, boshqa tillarda esa deyarli barcha fe'l guruhiga mansub so'zlar o'timlilik qiymatiga ega bo'lishi mumkin. Xususan, ingliz tilida juda ko'p fe'llar ham o'timli, ham o'timsiz shakllarda qo'llanila oladi (bir xil shaklda, hech qanday affiks qo'shilmagan holda)¹⁵. Ularning ba'zilari S=A turiga mansub (S – o'timsiz ega vazifasida (intransitive subject function), A – o'timli ega vazifasida (transitive subject function)) bo'lib, misol uchun *"knit"* fe'li, *"He is knitting"* (U to'qimoqda) / *"He is knitting a jumper"* (U jemper to'qimoqda); shuningdek *"speak", "watch", "eat", "help", "know", "try",* va h.k. kabi fe'llar ham shular sirasiga kiradi. Boshqalar esa S=O turiga mansub, masalan *"The soldiers marched"* (Askarlar yurishdi) gapdagi *"march"* fe'li / *The officer marched the soldiers* (Ofitser askarlarni safda boshqarib bordi), shuningdek *"walk", "move", "twist", "open", "break", "burst", "cool", "grow", "hurry"* va h.k. kabi fe'llarni misol tariqasida keltirish mumkin. "Ergativ" atamasi ayniqsa "eganing turi" uchun "tavsiflovchi belgi" sifatida quyidagi konstruksiyada noo'rin qo'llanilgan: *The officer marched the soldiers* (Ofitser askarlarni safda boshqarib bordi).

Lug'atshunos va tilshunos olim D. Kristalning eng ko'p xarid qilingan "Dictionary of Linguistics and Phonetics" (2008: 172-6) kitobidagi "ergativ", "ergativlik" ga berilgan ta'rif bu atamaning ma'nosini ochib beruvchi bir eshik sifatida gavdalanadi. Unga ko'ra, ergativ (ot) (erg, ERG) – Inuktitut va Bask kabi ba'zi tillarning grammatik tavsifida ishlatiladigan atama, bu yerda o'timli fe'lning to'ldiruvchisi va o'timsiz fe'lning egasi o'rtasida rasmiy parallellik mavjud bo'lgan konstruksiyalarni nazorat qilish uchun ishlatiladi (ular bir xil kelishikni ko'rsatadilar). Bunda o'timli fe'lning egasi "ergativ" sifatida baholanadi, holbuki o'timsiz fe'lning to'ldiruvchisi esa o'timli fe'lning to'ldiruvchisi bilan birga absolyutiv (absolute) deb ataladi. Ba'zi tillarda bunday kelishik belgisi ergativlik aniq bo'lgan holatlarda ko'rsatiladi, boshqa holatlarda esa (bo'lingan ergativlikda (split ergativity)) tushum kelishigining belgilari (accusative patterns) sifatida qaraladi. Misol uchun, Yukatek Mayya (Yucatec Mayan) tilida, murakkab holatda, absolyutiv holat ham o'timsiz fe'lning egasini, ham o'timli fe'lning to'ldiruvchisini belgilaydi, ergativ holat esa o'timli fe'lning egasini belgilaydi. Murakkab bo'lmagan holatda esa, absolyutiv holat faqatgina o'timli to'ldiruvchini (transitive objects), ergativ holat esa ham o'timli ham o'timsiz fe'llarning egasini belgilaydi. Shuningdek, ba'zi tilshunos olimlar tomonidan ingliz va bosha tillarda ergativlik tushunchasiga oid 172 ta ot so'z birikmasi (NP-noun phrase) ishlatilgan, ammo aloqador iboralarning rasmiy shakllari unchalik aniq bo'lmagan. Bu yondashuvda, *"The window broke"* (Deraza sindi) va *"The tree broke the window"* (Daraxt derazani sindirdi) kabi gaplar "ergativlik" deb tahlil qilinadi: bu yerda *broke* fe'lning o'timsiz shaklidagi egasi, uning o'timli shaklidagi to'ldiruvchi bilan bir xil

¹⁴ Dixon, R.M.W. Ergativity. Cambridge: Cambridge University Press. - 1994. P-1

¹⁵ Ular "ambitransitive" yoki "labile" fe'llar deb ham atalishi mumkin.

bo'lib, ish-harakatning bajaruvchisi "ergativ ega" ("ergative subject") sifatida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari ergativ fe'llar, asosan, grammatik munosabatlarda unakkuzativ fe'llar (unaccusative verbs) (ya'ni, tushum kelishigisiz shakl) sifatida ham tanilgan.

Lug'atning oldingi nashrida (1991: 124-5) quyidagi misollar keltiriladi: "*The window broke / The man broke the window*" (*Deraza sindi / Erkak derazani sindirdi*) kabi misollar ba'zi tilshunoslarga ularni "ergativ holatida" ("ergatively") deb tahlil qilish imkonini beradi: bunda "*broke*" fe'lining o'timsiz holatidagi ega, uning o'timli holatidagi to'ldiruvchi vazifasida bir xil baholanadi, shunday qilib ish-harakatning aniq (active voice) va majhul nisbat (passive voice) da ifodalangan gap tarkibidagi ega (agent) – "ergativ ega" ("ergative subject") sifatida namoyon bo'ladi¹⁶

Yuqorida ta'kidlanganidek, ergativlik va unga aloqador tushunchalarning tahlilini tilshunos va lug'atshunos olim D. Kristal o'zining "Dictionary of linguistics and phonetics" nomli kitobida muqobil fikrlarini izchil yoritadi, bu esa o'z o'rnida zamonaviy tilshunoslikda aynan shu yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borayotgan yosh olimlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Uning ergativlikka bergan ta'rifi ergativ fe'llarga xos jihatlarni aniq va ravshan, misollar bilan yoritilgan. Aytishimiz joizki, Kristalning bu atama ustida bergan izoh va tushunchalarini kengaytirish tilshunoslikning bugungi kundagi dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

References:

1. Dirr, A. (1912). Rutulskij Jazyk [*The Rutu language*]. Sbornik materialov dlya Opisaniya y. Plemn Kavkaza 42. 1-204.
2. Dirr, A. (1928). Einfubrung in *Das studum der kaukasischen sprachen*. Leipzig: Verlag der Asia Major.
3. Haspelmath, M.(1993). More on the typology of inchoative/causative verb alternations. In Comrie & M. Polinsky (Eds.). *Causative and transitivity* 87-120. Amsterdam: John Benjamins.
4. Hale, K. & Keyser, S.J. (1993). On argument structure and the lexical expression of semantic relations. In K. Hale and S.J. Keyser (Eds), *The view from Building 20* (pp.53- 109). MIT Press, Cambridge mass.
5. Kiparsky, P. (1998). Partitive case and aspect. In M. Butt,&G. Wilhelm (Eds). *The projection of arguments: Lexical and compositional factors* 265-307. Stanford: CSLI Publication.
6. Dixon, R.M.W. (1994). Ergativity. Cambridge: Cambridge University Press. P-2.
7. Umbrella term – used to cover a broad number of functions or items that all fall under a single common category. Collins English dictionary.

¹⁶ D. Crystal. A dictionary of linguistics and phonetics. Blackwell Publishing.- 2008. 6th edition. P-172